# 7-sinf Zoologiya

**Mavzu:** Suvda ham quruqlikda yashovchilarning xilma-xilligi va ahamiyati.

**Darsning ta’limiy maqsadi:** O‘quvchilarni suvda ham quruqlikda yashovchilarning xilma-xilligi, dumsizlar, dumlilar turkumining o‘ziga xos xususiyatlari, vakillari va ahamiyati bilan tanishtirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilarni suvda ham quruqlikda yashovchilarning xilma-xilligi, dumsizlar, dumlilar turkumining o‘ziga xos xususiyatlari, vakillari va ahamiyati bilan tanishtirish orqali ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ekologik va iqtisodiy tarbiya berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O‘quvchilarning suvda ham quruqlikda yashovchilarning xilma-xilligi, dumsizlar, dumlilar turkumining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlari, darslik ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

**Darsni jihozlash:** Suvda ham quruqlikda yashovchilarning xilma-xilligi, dumsizlar, dumlilar turkumining o‘ziga xos xususiyatlari, vakillari aks etgan jadvallar.

**Darsda foydalaniladigan texnologiya:** Modulli ta’lim texnologiyasi (kichik guruhlarda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturi)

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**

O‘tgan mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini test savol-topshiriqlari yordamida aniqlash va baholash.

O‘quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘llash.

Yangi mavzuni o‘rganish:

a) yangi mavzu bo‘yicha tuzilgan modul dasturini tarqatish va o‘quvchilarni modul dasturining didaktik maqsadi bilan tanishtirish;

b) o‘quvchilarning faoliyatini modul dasturidagi o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo‘llash;

v) har bir o‘quv faoliyati elementi topshiriqlarining to‘liq bajarilishini nazorat qilish, tegishli ko‘rsatmalar berish;

g) har bir o‘quv faoliyati elementi yakunida savol-javob yoki munozara o‘tkazish.

**O‘qituvchi ushbu darsda o‘rganiladigan o‘quv materialini quyidagi mantiqiy tugallangan fikrni to‘rt qismga ya’ni modulga ajratadi**:

1. Dumsizlar turkumi.
2. Dumlilar turkumi.
3. Suvda ham quruqlikda yashovchilarning ahamiyati.
4. Suvda ham quruqlikda yashovchilarning umumiy ta’rifi.

Shu asosda quyidagi modul dasturi tuziladi.

**«Suvda ham quruqlikda yashovchilarning xilma-xilligi va ahamiyati» mavzusi bo‘yicha kichik guruhlarda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturi.**

**Modul dasturining didaktik maqsadi:**

Siz sherigingiz bilan hamkorlikda ishlab suvda ham quruqlikda yashovchilarning turkumlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, dumsizlar, dumlilar turkumi vakillari va ularning ahamiyati bilan tanishishingiz, darslik ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalaringiz, nutq va muloqot madaniyatingizni rivojlantirishingiz zarur.

Shu asosda quyidagi modul dasturi tuziladi:

| **O‘quvchi faoliyati elementi (O‘FE)** | **O‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv materialiga oid topshiriqlar** | **Topshiriqlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar** |
|---|---|---|
| 1-O‘FE | Darslikdagi matnni diqqat bilan o‘qib chiqib quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring: | Guruh bilan hamkorlikda ishlang |
| | Dumsizlar turkumiga kiruvchi hayvonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang | |
| | Dumsizlar turkumiga kiruvchi hayvonlarni aniqlang. | Guruh bilan o‘tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting |
| 1. | O‘zbekistonda dumsizlar turkumining qaysi vakillari keng tarqalgan? Yashil baqaning yashash muhiti, tashqi tuzilishidagi o‘ziga xos belgilar va ahamiyatini o‘rganing. | O‘quvchilar guruhi bilan o‘tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting |
| 2. 3. 4. | Ko‘l baqasi va qurbaqani taqqoslang, o‘xshashlik va farqini aniqlang. Maqsad: Dumlilar turkumining o‘ziga xos xususiyatlari, vakillari va ularning ahamiyatini o‘rganish. | |
| 5.<br>2-O‘FE | Darslikdagi matnni diqqat bilan o‘qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring: | |
| 1. | Dumlilar turkumiga kiradigan vakillarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganing. Ularnig dumsizlar turkumi vakillaridan qaysi belgilari bilan farq qilishini aniqlang. | Guruh bilan amkorlikda ishlang |
| 2. | Dumlilar turkumi vakillari qayerlarda yashaydi? | Guruh bilan o‘tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting. |
| 4.<br><br>3-O‘FE | Nima sababdan O‘rta Osiyo hududida dumlilar turkumi vakillari uchramaydi?<br>Maqsad: Suvda ham quruqlikda yashovchilarning ahamiyatini o‘rganish.<br>Darslikdagi matnni diqqat bilan o‘qib chiqib, | Fikringizni asoslang. |

| | | |
|---|---|---|
| | quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring. Baqalar va qurbaqalarning ahamiyatini aniqlang. | |
| 2. | Suvda ham quruqlikda yashovchilarni muhofaza qilish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilgan? | |
| 3. | Siz suvda ham quruqlikda yashovchilarni muhofaza qilish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirishni taklif etgan bo‘lardingiz? | |
| 4-O‘FE | Suvda ham quruqlikda yashovchilarning umumiy ta’rifini o‘rganing. | Fikringizni asoslang. |
| 2. | Suvda ham quruqlikda yashovchilarni baliqlar bilan taqqoslang. O‘xshashlik va farqlarini aniqlang. | |
| 3. | Suvda ham quruqlikda yashovchilarning quruqliklarda yashash munosabati bilan qanday o‘zgarishlar vujudga kelgan? O‘zlashtirgan bilimlaringiz asosida 1-jadvalni to‘ldiring. | |
| 5-O‘FE | - Modul dasturini yakunlash.<br>Modul dasturining didaktik maqsadini o‘qib chiqing.<br>Siz unga qay darajada erishdingiz?<br>O‘zingizning o‘quv faoliyatingizni besh balli tizimda baholang.<br>O‘quv faoliyatingizdan qoniqish hosil qilgan bo‘lsangiz, suvda ham quruklikda yashovchilarning turkumlari va vakillari nomlaridan foydalanib krossvord tuzing.<br>Agar o‘z o‘quv faoliyatingizdan erishilgan natija sizni qanoatlantirmasa modul dasturi yordamida mavzuni qayta o‘rganing. | Baho keyingi fazada qo‘yiladi.<br>Belgilagan topshirig‘ingizni ma’lum qiling. |

1-jadval.

| **Taqqoslanadigan jihatlar** | **Baliq** | **Baqa** |
|---|---|---|
| Yashash muhiti va hayot kechirishi. | | |

Tashqi tuzilishi. Skleti va muskullari. Ovqat hazm qilish sistemasi. Nafas olish sistemasi. Qon aylanish sistemasi. Ayirish sistemasi. Nerv sistemasi. Ko‘payishi.

O‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv materialiga oid topshiriqlar.

Maqsad: Dumsizlar turkumining o‘ziga xos xususiyatlari, vakillari va ularning ahamiyatini o‘rganish.

Darslikdaga matnni diqqat bilan o‘qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:

Dumsizlar turkumiga kiruvchi hayvonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang. Dumsizlar turkumiga kiruvchi hayvonlarni aniqlang.

O‘zbekistonda dumsizlar turkumining qaysi vakillari keng tarqalgan? Yashil baqaning yashash muhiti, tashqi tuzilishidagi o‘ziga xos belgilar va ahamiyatini o‘rganing.

Ko‘l baqasi va qurbaqani taqqoslang, o‘xshashlik va farqini aniqlang. Maqsad: Dumlilar turkumining o‘ziga xos xususiyatlari, vakillari va ularning ahamiyatini o‘rganish.

Darslikdagi matnni diqqat bilan o‘qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:

Dumlilar turkumiga kiradigan vakillarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganing. Ularning dumsizlar turkumi vakillaridan qaysi belgilari bilan farq qilishini aniqlang.

Dumlilar turkumi vakillari qayerlarda yashaydi?

V. O‘quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish. Har bir modul yakunida o‘quvchilar jamoasi bilan savol-javob, o‘quv munozarasini o‘tkazish.

VI. Modul dasturini yakunlash.

VII. Yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini test topshiriqlari yordamida nazorat qilish va baholash.

VIII. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

IX. Uyga vazifa berish.